

## MAHOBATLI RANGTASVIRDA KOMPOZITSION YECHIM

**Toshkenboyeva Shaxnoza**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Maxobatli rangtasvir mutaxassisligi

2 bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, rangtasvirida kompozitsion yechim nima ekanligi, undan foydalanishning ilmiy va amaliy ilmiy tahlil qilingan va bu tushuncha atroflicha yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Kompozitsiya, shartlilik, dekorativlik, yaxlitlik, arxitektura, interyer, eksteryer, badiiy muhit, mahobatli rangtasvir.

**Аннотация:** В данной статье подробно освещено, что такое композиционный раствор в цветном изображении, научно-практический анализ его использования и это понятие.

**Ключевые слова:** Композиция, условность, декоративность, целостность, архитектура, интерьер, экстерьер, художественная среда, величественная живопись.

**Annotation:** In this state, it is explained in detail, what is the compositional solution and color image, scientific and practical analysis of its use and concept.

**Key words:** Composition, condition, decorativeness, wholeness, architecture, interior, exterior, divine environment, velichestvennaya painting.

Kompozitsiya keng qamrovli tushuncha boʻlib, bu soʻzni deyarli barcha sohada ishlatish mumkin. “ Kompozitsiya inson ijodining barcha turlarida ham keng qoʻllaniladi. Shuningdek, u sheʼriyatda, sanʼatning barcha turlarida mavjud.

Kompozitsiya rangtasvir asari, me'moriy obida, majmua hamda dizayn san'atiga xos sanoat buyumi yaratishda keng qo'llaniladi. Ushbu fan ijodiy yo'nalishdagi mutaxassislar uchun suv va havodek zarur. Ijodkor asarining muvaffaqiyati uning kompozitsiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'z asarlarida kompozitsiya jihatidan yaxshi natijalarga erishgan ijodkorni, u xoh rassom bo'lsin, xoh me'mor bo'lsin, o'z sohasining kompozitori deb atashgan<sup>16</sup>.”

Kompozitsiya so'zining kelib chiqishi qanday, quyida uning ta'rifini keltirsam. Kompozitsiya so'zi lotincha so'z bo'lib (compositio), tuzilish, birlashish, bog'lanish degan ma'nolarni anglatadi. Tamom, kompozitsiya so'zining asosiy mazmunini aynan mana shu uch tushuncha - tuzilish, birlashish va bog'lanish beradi. U hox tasviriy san'at asari bo'lsin, hox badiiy adabiyot asari yoki bo'lmasam istalgan buyum bo'lsin mana shu uch jihat bor ekan uni kompozitsion yechimga ega deyishimiz mumkin. Misol tariqasida oddiy stulni oladigan bo'lsak, stul tuzilishi jihatidan deylik to'rtta oyoqdan, bitta o'rindiqlik va bitta suyanchiqdan iborat. Va bu elementlarning barchasi bir biriga chambarchas bog'langan va ular birlashib bir butun buyum vazifasini bajaradilar. Demak bu yerda ham ma'lum darajada kompozitsion yechim mavjud deyishimiz mumkin. Endi, tasviriy san'atda kompozitsion yechim deganda nimani tushunishimiz kerak. Bu biroz murakkab masala bo'lishi mumkin, ammo yuqorida stul misolida sodda qilib tushuntirilgan tizim bu yerda ham ishlaydi. Faqat endi balkim kompozitsiyaning ichiga chuqurroq kirish kerak bo'ladi. Ya'ni uning o'ziga yarasha umumiy va asosiy qonunlari va aynan tasviriy san'at talab qiladigan qoidalari mavjud. Va ularni o'zlashtirmasdan ma'lum tasviriy san'at kompozitsiyasini ishlab chiqish yoki uni tahlil qila olish murakkab hisoblanadi.

“Kompozitsiya - qonuniy tashkil qilingan organizm, uning hamma qismlari mustahkam aloqada va o'zaro bog'liqlikda. Bu aloqa va o'zaro bog'liqlik xususiyati rassomning g'oyaviy fikri bilan belgilanadi. Fikr mohiyatiga xos bo'lgan konstruktiv g'oya kompozitsiyaning amaliy asosini beradi. (Ye.A.Kibrik)”<sup>17</sup>

<sup>16</sup> Kompozitsiya asoslari. D.A. Nazilov, I.V. Dmitriyeva, N.X. Xadjiboyeva. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2009.

<sup>17</sup> Kompozitsiya asoslari. D.A. Nazilov, I.V. Dmitriyeva, N.X. Xadjiboyeva. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2009

Tasviriy san’atda kompozitsiya asarning asosi, shunchaki tuzilishi emas, balki shu tuzilishning maqsadi, uning nima asosida tuzilganligidir. kompozitsiya asar g’oyasiga bog’liq. Tanlangan obraz yoki voqea asarga kiritish uchun muvofiqmi yoki yo’qmi — buni faqat ijodkor aytmoqchi bo’lgan gapga nisbatan aniqlash mumkin. Bu ham kompozitsiyaning muhim bir tomoni bo’lib, kompozitsiya shu jihati bilan asarda mazmunning qay darajada mazmundorligini ko’rsatuvchi muhim omillardan.

Kompozitsiya tasviriy san’atda rassom g’oyasini aniq ifoda etish vositasi bo’lib, unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon bo’ladi. Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang , obrazlar va h.k.larni tartibga soladi, fazoviy kenglikni o’zlashtiradi va badiiy muhit yaratadi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl aniqligi va ularning o’zaro uyg’unligi tashkil qiladi. Ijodkor yaratgan har bir asarining asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok etish jarayonida hosil bo’ladigan fikr, his-tuyg’ular o’z aksini topadi. Endi bu yerda ijodkor g’oyasi, uning his-tuyg’ulari, fikr-o’ylari va ijodiy imkoniyatlar, hammasi uyg’un bo’lib bog’lanadi va birlashib bitta tuzilmaga aylanadi. Tasviriy san’atning har bir turi o’ziga xos kompozitsion uslublarga ega. Masalan kitob bezagi mahobatli rangtasvir kompozitsiyalaridan farq qiladi. Shuningdek, kompozitsiyani idrok qilish ham turlicha bo’lishi mumkin. Masalan dastgohli rangtasvir kompozitsiyalari asosan yaqin masofadan tomosha qilishga mo’ljallanadi. Va undan farqli ravishda mahobatli rangtasvir asarlari anchayin uzoq masofadan Kuzatiladi. Shu sababli ham bu ikki tasviriy san’at yo’nalishida kompozitsion yechim bir-biridan keskin farq qiladi. Ya’ni har bir tasviriy san’at yo’nalishini o’zining talabiga ko’ra uning kompozitsion yechimi o’zgaradi. Buni biz mahobatli rangtasvir misolida ko’rib chiqsak.

Mahobatli rangtasvir kompozitsiyalari ma’lum bir arxitektura binosi interyeri yoki eksteryerini bezash maqsadida ishlab chiqiladi. Shu sababdan ham ko’pincha mahobatli rangtasvir asari bino bilan uyg’un bo’lishi uchun kompozitsiya ishlash jarayonida bino tuzishi ham inobatga olinishi kerak bo’ladi.

“Kompozitsiya me’morchilik (arxitektura) qismlari bilan devoriy rasmlarga bog’liqligini hal qilish katta ahamiyatga ega. Bo’lajak devoriy rasmni arxitektura

binosiga joylashda, uning o‘rnini aniqlashda me’mor (arxitektor) yordami muhim hisoblanadi<sup>18</sup>.” Mahobatli rangtasvir kompozitsiyalari o‘zining yaxlitligi, umumiy-  
ligi, shartlilik va dekorativligi bilan xarakterlanadi.

Shartlilik ham ayniqsa, mahobatli rangtasvir uchun muhim jihat deb hisoblayman. Sababi mahobatli rangtasvir yuqorida ta’kidlaganimizdek uzoq masofadan ko‘rishga mo‘ljallanadi. Va tabiiy ravishda shartlilikka ehtiyoj bo‘ladi. Masalan ranglar, obraz, umuman barcha kompozitsiya elementlari haqiqatga yaqin qilib, realistik ishlansa uzoq masofadan yahshi o‘qilmasligi yoki bo‘lmasam umuman yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Shu sababdan ham shakllar, obrazlar va h.k elementlar shartli ravishda deformatsiyaga uchraydi. Ranglar bo‘rttirilishi yki aksincha kuchsizroq ishlanishi mumkin. Bularning barchasi badiiy ta’sirchanlikka erishishga hizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. R.Xudoyberganov. Toshkent 2015
2. Kompozitsiya asoslari. D.A.Nazilov, I.V.Dmitriyeva, N.X.Xadjiboyeva. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2009
3. “Kompozitsiya asoslari” o‘quv qo‘llanma G.B.Matchonov  
<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kompozitsiya>

<sup>18</sup>Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. R.Xudoyberganov. Toshkent 2015.